

VIDEOREGISTRATORLAR YORDAMIDA YO‘L TRANSPORT HODISALARINI TADQIQ QILISH

*O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar Vazirligi Akademiyasi
Kriminalistik ekspertizalar kafedrasida o‘qituvchisi, katta leytenant*

Qirg‘izboyev Maruf Odiljon o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar Vazirligi akademiyasi

2-o‘quv kursi 230-guruh kursanti safdori,

Odiljonov Azizbek Nodirbek o‘g‘li

Annotatsiya: Bugungi kunda yo‘l transport hodisalarining sodir etilishini aniqlash, ularni kamaytirish va sabablarini aniqlashda zamonaviy texnologiyalar, xususan, videoregistratorlar muhim rol o‘ynamoqda. Yo‘l transport hodisalari (YTH) bilan bog‘liq statistikalar har yili bir necha minglab insonlarning jarohatlanishi va o‘limiga olib keladi. YTHni tahlil qilish va oldini olishning eng samarali yo‘llaridan biri videoregistratorlardan foydalanishdir. Videoregistratorlar nafaqat harakat jarayonlarini yozib olish, balki hodisalarning sabablari, shart-sharoitlar va haydovchilarning xatti-harakatlarini aniqlashda ham foydalidir. Videoregistratordan foydalangan holda yo‘llarda transport harakati xavfsizligini oshirishga doir ilmiy ishlanmalar olib borilishi mumkin.

Tayanch so‘zlar: O‘zbekiston Respublikasi IIV Jamoat xavfsizligi departamenti Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati statistik ma‘lumotlari, “Jismoniy va yuridik shaxslarning avtotransport vositalariga o‘rnatilgan videoregistratorlar shuningdek, videokuzatuv va tasvirga olish texnika vositalari hamda mobil qurilmalar orqali qayd etilgan huquqbuzarlik holatlari to‘g‘risidagi videoyozuvlarni qabul qilish, ko‘rib chiqish hamda ularni taqdim etgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risida” gi VMQ 747-son, “Yo‘l harakati qoidalari buzilganligini maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish dasturiy-texnik vositalari orqali qayd etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi VMQ 148-son

Аннотация: Сегодня современные технологии, в частности видеорегистраторы, играют важную роль в выявлении, снижении и установлении причин дорожно-транспортных происшествий. Статистика дорожно-транспортных происшествий (ДТП) ежегодно приводит к травмам и гибели нескольких тысяч человек. Одним из наиболее эффективных способов анализа и предотвращения аварий является использование видеорегистраторов. Видеорегистраторы полезны не только для фиксации дорожных процессов, но и для определения причин, условий и поведения водителей. Научные разработки, направленные на повышение безопасности движения на дорогах, могут осуществляться с использованием видеорегистраторов.

Annotation: Today, modern technologies, in particular video recorders, play an important role in detecting, reducing and identifying the causes of road traffic accidents. Statistics related to road traffic accidents (RTA) indicate that several thousand people are injured and killed every year. One of the most effective ways to analyze and prevent RTA is to use video recorders. Video recorders are useful not only for recording traffic processes, but also for identifying the causes, conditions and behavior of drivers. Using video recorders, scientific developments can be carried out to improve road safety.

Kirish.

Yo‘l-transport hodisasi — transport vositasining yo‘ldagi qatnovi jarayonida sodir bo‘lib, fuqarolarning o‘limi yoki ularning sog‘lig‘iga zarar yetishiga, transport vositalari, inshootlar, yuklar shikastlanishiga yoki boshqa tarzda moddiy zarar yetkazilishiga sabab bo‘ladigan hodisalar hisoblanadi. Bugungi zamonaviy texnika va texnologiyalar ishlab chiqarilishi jadallashgan kunda avtomobilsozlik sanoati yuqori darajada takomillalish bormoqda. Buning natijasida yo‘llarda transport harakati xavfsizligiga bo‘lgan tahdidlar ham ortib bormoqda. Yo‘llarda transport vositalarini oqimini ko‘payib borishi natijasida ko‘plab yo‘l transport hodisalarini sodir bo‘lishiga sabab bo‘lib, bu ko‘rsatkichlar jadallik bilan o‘sib borishi insonlarning hayoti, moliyaviy jihatlari shuningdek xavfsizligiga zarar yetkazishi bilan bog‘liqligi bu boradagi izlanishlarimizning asosiy sabablaridan hisoblanadi.

Ushbu yo‘l transport hodisalarini oldini olish va kamaytirish maqsadida ularni sodir etilish sabablarini, shart-sho‘itlarini, shuningdek uning oqibatlarini aniqlashimiz muhim ahamiyat kasb etadi. Yo‘l transport harakatining sabablari ko‘pincha haydovchi xatolari, yo‘l sharoiti, transport vositasining holati yoki tashqi omillar bilan bog‘liq bo‘ladi. Videoregistratorlar yordamida bu sabablarni aniqlash va tahlil qilish imkoniyatlari kengayadi. Bugungi kunda yo‘l transport hodisalarining kamayishi va ularning sabablarini aniqlashda zamonaviy texnologiyalar, xususan, videoregistratorlar muhim rol o‘ynamoqda. YTHni tahlil qilish va oldini olishning eng samarali yo‘llaridan biri videoregistratorlardan foydalanishdir. Chunki videoregistratorlar nafaqat harakat jarayonlarini yozib olish, balki hodisalarning sabablari, shart-sharoitlar va haydovchilarning xatti-harakatlarini aniqlashda ham foydalidir. Ularni ishlash tizimi va imkoniyatlaridan foydalangan holda jinoyat va boshqa protsessual harakatlarni amalga oshirishda muhim dalil sifatida foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Asosiy qism:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarorida foto va video qayd etish - yo‘l harakati qoidalari buzilishini maxsus avtomatlashtirilgan foto va video texnik vositalari, shuningdek,

videokuzatuv va tasvirga olish texnika vositalari hamda mobil qurilmalar yordamida qayd etish xisoblanishi aytib o'tilgan.

Videoregistratorlar yordamida yo'l transport hodisalarini tahlil qilishning bir nechta afzalliklari mavjud:

- **Yo'l transport hodisalarini aniq qayd etish**
- **Haydovchining xatti-harakatlarini tahlil qilishning vujudga kelishi**
- **Boshqa yo'l ishtirokchilari harakatlarini kuzatish**

Hodisalarni aniq qayd etish, bunda videoregistratorlar YTHning aniq va ob'ektiv tasvirini beradi. Yani yo'llarda o'rnatilgan video-kuzatuv kameralari aniqlashi mumkin bo'lmagan va turli sabablar tufayli sifatsiz bo'lgan video tasvirlarga qaraganda videoregistratorlardan olingan video lavhalar sifatli va aniq ekanligi bilan ajralib turadi. Bu video materiallar sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sig'orta kompaniyalari tomonidan ishonchli dalil sifatida ishlatiladi. Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning avtotransport vositalariga o'rnatilgan videoregistratorlar shuningdek, videokuzatuv va tasvirga olish texnika vositalari hamda mobil qurilmalar orqali qayd etilgan huquqbuzarlik holatlari to'g'risidagi videoyozuvlarni qabul qilish, ko'rib chiqish hamda ularni taqdim etgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risida" gi qarorida

Videotexnika vositalari orqali qayd etilgan huquqbuzarlik holatlari aks etgan videoyozuvlar maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilgan huquqbuzarliklar holatlari qayd etilgan videoyozuvlarga tenglashtiriladi hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida belgilangan tartibda ko'rib chiqilishi ko'rsatib o'tilgan.

Videoregistratorlar yordamida olingan videolavhalar sudlarda dalil sifatida qo'llanilishiga qonunchilik ruxsat berishi uning ishlatilishini qonunlashtiradi. Bunday video materiallar, ayniqsa, YTHda jismoniy jarohatlar yoki moliyaviy zararlar yuzaga kelgan hollarda muhim ahamiyatga ega. Jinoyat va fuqarolik sudlaridada hamda sug'urta kompaniyalari tomonidan videoregistratorlarning video materiallari, masalan, hodisaning sodir bo'lishi va har bir ishtirokchining harakati haqida to'liq va aniq ma'lumotlarni taqdim etilishi muhim dalillar xisoblanadi.

Haydovchining xatti-harakatlarini tahlil qilishda esa videoregistratorlar yordamida haydovchilarning harakatlarini tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Masalan, tezlik, yo'lining holati, boshqaruvni nazorat qilish, tirbandlik va boshqa omillar tasvirda qayd etiladi. Boshqa yo'l ishtirokchilarini kuzatish bu avtomobilning videoregistratori nafaqat o'z transport vositasi, balki boshqa transport vositalarini, piyodalarni va yo'l belgilarini ham tasvirlaydi, bu esa YTHning sabablarini aniqlashda muhimdir.

Videoregistratorlar yordamida YTHlarni oldini olish

Videoregistratorlar yordamida YTHlarni oldini olish uchun bir nechta chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Masalan:

1. **Haydovchilarni ogohlantirish** – videoregistratorlar orqali haydovchilarning noto‘g‘ri xatti-harakatlari qayd etilishi va bu haqda ogohlantirishlar yuborilishi mumkin. Bu, o‘z navbatida, haydovchilarni ehtiyotkorlikka chaqiradi.

2. **Yo‘l xavfsizligi statistikasi** – videoregistratorlar yordamida to‘plangan ma'lumotlar yo‘l xavfsizligi statistikalarini shakllantirishda va YTHlarni oldini olishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqishda yordam beradi.

3. **Yo‘l sharoitlarini yaxshilash** – YTHlar ko‘pincha yo‘lning yomon holati yoki yoritishning yetarli emasligi sababli sodir bo‘ladi. Videoregistratorlar yordamida ushbu omillarni tahlil qilib, yo‘l infratuzilmasini takomillashtirishga yordam beradigan takliflar ishlab chiqish mumkin.

Xulosa

Videoregistratorlar yordamida yo‘l transport hodisalarini tahlil qilishda katta potensial mavjud. Ular nafaqat YTHlarni aniq qayd etish va tahlil qilish imkoniyatini beradi, balki haydovchilarning xatti-harakatlarini yaxshilash, yo‘l xavfsizligini oshirish va YTHlarni oldini olishda muhim vositadir. Shu bilan birga, videoregistratorlardan foydalanish ham huquqni muhofaza qilish tizimlarida, ham umumiy jamiyatda samarali natijalar keltirishi mumkin. YTHlarning oldini olish va yo‘l xavfsizligini ta'minlash borasidagi harakatlar davomida videoregistratorlar albatta muhim vositaga aylanadi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1. **Xudoyberganov, A.** (2020). *Transport Trassalogiyasi: Asosiy Nazariyalar va Amaliyot*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.
2. **Kadyrov, R.** (2018). *Transport Tizimlarini Loyihalash va Ularning Samarali Foydalanilishi*. Toshkent: Fan va Texnologiya.
3. **Shukurov, T.** (2019). *Shahar Transport Trassalari va Ularni Rivojlantirish*. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti.
4. **Fayzullayev, B.** (2021). *Transport Trassalogiyasining Ekologik Asoslari*. Tashkent: O‘zbekiston Atrof-Muhitni Muhofaza qilish Jamiyati.
5. **Muratov, F.** (2016). *Transport Trassalogiyasi: Teoriyadan Amaliyotgacha*. Buxoro: Buxoro Davlat Universiteti.
6. **Gulomov, A.** (2020). *Yo'llarni Qurish va Ularning Samarasini Baholash*. Tashkent: Texnika Universiteti.
7. **Shomurodov, R.** (2022). *Transport Tizimlarida Raqamli Texnologiyalarni Qo'llash*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Transport Departamenti.
8. **Zarifov, J.** (2018). *Qurilish Materiallari va Texnologiyalarining Transport Trassalaridagi O'rni*. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti.